

ISLOM DINIDA TINCHLIK VA BAYNALMINALLIK TUSHUNCHALARINING BEQIYOS O'RNI

Baxtiyorov Yahyoxon Baxtiyor o'g'li

Toshkent viloyat Chirchiq davlat pedagogika instituti talabasi
Ilmiy rahbar: Ismayilov Akmal Ziyadillaevich, CHDPI o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada islom dinining naqadar tinchlik sevar din ekanligi uning boshqa din vakillari orqali yuksak madaniyatli aloqalari bu masalalar Qur'oni Karim orqali tartibga solib qo'yilganligi haqida fikr yuritiladi

Kalit so'zlar: iymon, baynalminallik, tinchlik, islom, terrorizm, ekstremizm

Dunyoda ko'plab dinlar mavjud va ularning barchasida ezgulik tinchlik kabi qadriyatlar asosiy va oliy darajada ekanligi aytib o'tiladi. Ayniqsa islom dini bu masalaga alohida qaraydi bunga misol qilib Alloh ta'oloning ushbu kalomini keltiramiz[1]. "Ey iymon keltirganlar! Islomga to'lig'icha kiring. Va shaytonning izidan ergashmang. Albatta, u ochiq dushmandir." [Baqara 208-oyat] "Tinchlik masalasi dunyo miqyosida eng muhim va dolzarb masala bo'lganligi uchun ham Qur'ondan o'rin olgan. Arab tili lug'atida "salm" "silm" "salom" so'zlari o'zaro bir asosdan olingan hisoblanadi va umumiy ma'noda tinch, tinchlik kabi ma'nolarda qo'llaniladi. Tinchlik bu barcha yaxshiliklarning asosi hisoblanadi. Tinchlik bo'lmagan yurtlarda bo'layotgan hunrezliklar, teraktlar tarixda va hozirda ham tinchlikning naqadar yuksak, buyuk ne'mat ekanligini isbotlab ko'rsatib kelmoqda. Hozirgi zamonda tinchlik ne'matiga ko'lab tahdidlar bo'lmoqda eng yomon tomoni esa ushbu qadriyatni poymol qilishda islomni niqob qilib olmoqdalar. Vaholangki Islom dinichalik tinchlik targ'ib qilingan din dunyoda bo'lgan emas uni noto'g'ri tushunish natijasida hozirgi terroristik aktlar va ekstremiz harakatlari yuzaga kelmoqda. Livanlik yozuvchi olim Muhammad Sammok o'zining "Musulmon va zamonaviy qarama qarshilik" kitobida quyidagilarni yozadi "Terror arab ixtirosi yoki islomiy bid'at emas, balki zamonaviy asrda siyosiy iztiroblar natijasida yuzaga kelgan nafratning bir ko'rinishidir. Aslida terror ikki asr oldin yuzaga kelgan. Terror Fransiyada 1793-yil 10-martdan 1794-yil 27-iyulgacha davom etdi. "Terror" so'zi inglizcha "terrorism" fransuzcha "terrorisme" so'zidan olingan. Fransiya inqlobi davrida Robesper, Sen Jyust, Kuton kabi insonlar tomonidan keng ko'lamli siyosiy zo'ravonlik ishlari kelib chiqdi. O'sha paytda Fransiya aholisi 27 million kishi edi. Mana shu guruh 40 ming nafar kishining kallasini {gilotina} bilan kesib 300 ming kishini hibsdan ushlab turdi"[2].

Ushbu olim o'z fikrlari orqali islom diniga otilayotgan bo'xton toshlariga javob qaytardi desak mubolag'a bo'lmaydi. Terrorni faqatgina islom dini bilan bog'lashlik islom dushmanlarining ishidir. Diniy olim Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf o'zining "Ochiq xat" nomli kitobida terrorning islomda kelib chiqish sabablariga shunday ta'rif beradi "Bu noxush va salbiy holatlarning ijtimoiy va siyosiy iqtisodiy boshqa bir qancha sabablari bor. U ham bo'lsa musulmonlar ichida Islomni tartibli ravishda va kerakli uslubda mutaxassis ustozlardan o'rganmaslik. Yana bir sababi – biryoqlamalik, bemazhablik, odobsizlik va dinda chalasavod kishilarning o'z xohishlari asosida g'uluvga ketishlaridir"[3].

Azal azaldan musulmonlar, xristianlar, yahudiylar bir yurtlarda birgalikda tinch totuv va ahillikda yashab kelishgan. Hazrati Muhammad sollallohu alayhi vasallam ham o'z sunnatlari bilan buni yorqin isbot va ko'rsatma sifati ko'rsatib berganlar. Zimmiylar musulmonlar himoyasiga olingan asosan yahudiy xristian dini a'zolari ular o'zlarining himoyasi uchun jizya solig'ini to'laganlar haqqiga rioya qilish bizning dinda buyurlangan hisoblanadi va bizning dinda boshqa din vakilining "ilohlari" ni haqorat qilish qat'iyan taqiqlangan hamda[agar ular musulmonlar haqqiga tajovvuz qilishmasa ular bilan yaxshi munosabat o'rnatishga buyurilganmiz. Bu qoidalar O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida ham o'z aksini topgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 31-moddasida Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan diniga e'tiqot qilishi yoki hech qaysi dinga e'tiqot qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlar majburan singdirilishiga yo'l qo'yilmaydi"[4].

Hozirgi kunda O'zbekiston aholisining soni 31 milliondan oshgan bo'lib, ular 130 dan ziyod millatga mansub hisoblanadi. Aholining 94% islom diniga, 3,5%ga yaqini pravoslav va qolganlari boshqa konfessiyalarga mansublarni tashkil etadi Respublikamizda 16 diniy konfessiyaga mansub 2239 diniy tashkilot faoliyat olib bormoqda. Ulardan 2065 tasi islomiy, 157 tasi xristian tashkilotlar, 8 tasi yahudiy, 6 tasi bahoiiy jamoalari, bittadan Krishnani anglash jamiyati va budda ibodatxonasi mavjuddir. Bundan tashqari, respublikada konfessiyalararo Bibliya jamiyati ham faoliyat yuritmoqda"[5].

2017 yil 30 may kuni Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Din ishlari bo'yicha qo'mita O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi va Musulmonlar idorasi bilan birgalikda O'zbekiston milliy matbuot markazida "Milliy va diniy bag'rikenglik -tinchlik va barqarorlik garovi " mavzusida matbuot anjumani bo'lib o'tdi . Ushbu anjumanda turli din vakillarining o'z diniy urf odatlarini amalga oshirishlariga sharoit yaratib berilishi va fuqarolar diniy uyushmalarga birlashishlari uchun kafolatlar berilishi haqidagi bag'rikenglik g'oyalari ilgari surildi. «Mamlakatimizda hukm surayotgan millatlar va dinlararo totuvlikni, fuqarolar hamjihatligini yanada mustahkamlash, yagona xonadonimiz bo'lmish O'zbekistonda istiqomat qiliyotgan barcha insonlarning millati va dini, irqi va jinsiga qaramasdan, ularning tinchligini va osoyishtaligini ta'minlash – bu boradagi ishlarimizniig asosiy ma'no–mazmuniga aylanishi darkor»[6]. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov bu aytgan so'zlarida butun insoniyat bir ota va ona farzandi ekanligi ular hamjihat va o'zaro hamkorlikda yashashliklarini taminlash kerakligini uqtirmoqdalar.

1995 yil 16 noyabrda YUNESKO bosh konfessiyasining 28-sessiyasida Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi qabul qilindi. YUNESKO tomonidan hozirda 70 dan ziyod konvensiya qabul qilingan. Bugungi kunda 16-noyabr "Xalqaro bag'rikenglik" kuni sifatida nishonlanib kelinmoqda . Ushbu tartib 1996-yil BMT bosh assambleyasi tomonidan taklif etilgandan keyin joriy qilingan .Shu kabi ko'plab xalqaro tashkilotlar tomonidan yuqoridagi kabi konvensiyalar qabul qilingan. Shuni takidlab o'tish joizki musulmon xalqlari bu masalaga alohida qaraydilar. Bunga tarixning o'zi guvohdir. Bu haqda nafaqat musulmon tarixchi olimlar balki musulmon bo'lmagan xalq vakillari ham tan olgan holda aytib o'tganlar shu jumladan angiliyalik dastlab rohib va tarixchi olim Yaqin sharq tarixi bo'yicha mutaxassis Karen Armstrong ham shular jumlasidan va u shunday fikr qoldirgan "Islom" arab tilida tinchlik degan so'zning asosidan olingan bo'lib, Qur'onda urush Allohning irodasiga qarshi g'ayritabiiy holat sifatida qoralanadi.

Islomda dushman tarafni yo'q qilishga qaratilgan bosqinchilik harakati taqiqlangan. Islom faqat muqarrar bo'lgan va himoyalaniish uchungina bo'lgan urushlar tan olinadi va ayrim holatlarda insonlarni nohaqliklardan zulmdan qutqarish uchun oliy majburiyat deb ham hisoblashadi. Qur'onda hatto adolatli urush bo'lsa ham qat'iy qoidalarga amal qilgan holda insonparvarlik yo'li bilan olib boriladi.Muhammad sollallohu alayhi vasallam ozod bo'lgan qullari Zayd ibn Xorisani nasroniylarga qarshi urushga jo'natayotganlarida unga Alloh yo'lida mardona jang qilishini va lekin insonparvarlikni unutmaslikni buyurganlar. Jangchilar uy xizmatchilarini,yosh bolalarni, ayollarni qariyalarni tinch aholini, bemor odamlarni, urushda qatnashmayotganlarni halok etishdan va ularga zarar berishdan qaytarilingan va bino uy joylarga zarar berishmaganlar. Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhu Suriyaga harbiy yurishga ketayotib, o'z qo'shinlariga Qur'oni karimning haqiqiy da'vatiga yorqin misol bo'lgan quyidagi buyruqni bergandilar: «Ey insonlar, men sizlarga chin dildan amal qilishingiz lozim bo'lgan o'n qoidani ma'lum qilaman. Ularni aslo esdan chiqarmang va to'g'ri yo'ldan adashmang. Bolalarni, ayollarni va keksa kishilarni o'ldirmang. Xurmo daraxtlariga o't qo'ymang va daraxtlarni kesmang. Tuyalarni, podalarni va boshqa (hayvonlar) to'dasini o'ldirmang... Siz o'zga ishlar, oxirat dunyosiga xizmat bilan mashg'ul odamlarni uchratasiz. Shunda ularni o'z holiga qo'ying. Sizga turli noz-ne'matlarni tuhfa qilib kelgan odamlarni uchratasiz, ulardan yeng, ammo Alloh nomini esga olishni unutmang».[7]

Ushbu fikrni musulmon bo'lmagan olim Karen Armstrong haqqoniy ravishda bayon etib qoldirgan. Tarix mobaynida juda ko'lab hududlarni boshqargan musulmon hukumdorlar yahudiy va nasroniy dinining vakillariga hurmat va bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lganlar. Islom davlatlarida yahudiylar ham nasroniylar ham to'la xavfsizlikda tinchlik osoyishtalikda, diniy erkinlikda yashab kelgnlar va yashab kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Tafsiri Hilol". – Toshkent: "Hilol-nashr", 2021. – B. 208.

2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Ochiq xat". – Toshkent: "Hilol-nashr", 2021.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2019.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – B. 27.
5. Kalkanov Eshmatboy. (2021) Patriotism and Socio-Spiritual Factors that Patriotism. International Journal of Development and Public Policy. –pp. 177-179.
6. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон – тараққиёт стратегияси. – Т.: "Ўзбекистон", 2022 - Б. 293.
7. Dilshodjon Karimov. (2022). O'zbekiston Respublikasida yoshlar tarbiyasida diniy-axloqiy bilimlarning o'rni / Interdisciplinary research: scientific horizons and perspectives III International Scientific and Theoretical Conference, -p. 80-81.
8. Umidbek Adambayev. (2021) Faith – the conception of belief and steps to develop it / Actual problems of modern science, education and training. – p. 96.
9. Umid Adambayev. (2021). Milliy o'zlikni anglash millat taraqqiyotining poydevori // Scientific progress. – pp. 1858-1862.
10. Кандов Б.М. (2022) Роль этнокультуры в воспитании молодежи Узбекистана в духе национальной идеологии. Conference Zone. – pp. 77-80.
11. Kandov Bakhodir Mirzayevich (2022). Socio-legal foundations for the development of a civic position among the youth of a renewed Uzbekistan. International Conference on Research Identity, Value and Ethics. – pp. 185-188.
12. Kandov B.M. (2022). The Role of Religious and Moral Values in Strengthening the Spiritual Development of Society and Individuals // European journal of life safety and stability (EJLSS). – pp. 88-92.
13. Kandov B. (2022) Current Issues of Harmony of Human and National Values In the Formation of Civil Station of the Youth of New Uzbekistan. Journal of Ethics and Diversity in International Communication 1 (8), 30-33.
14. Kandov B.M. Ikramov R.A. (2022) The Role of Ecological Values in the Private Perspective in the Process of Globalization // European journal of life safety and stability (EJLSS). – pp. 68-73.
15. Адамбаев Умидбек. (2022) Ишонч-этиқодни шакллантиришда урф-одат ва анъаналарнинг таъсири / Scientific progress. – pp. 348-351.
16. Умидбек Хайтбаевич Адамбаев. (2022) Экологик маданият ва уни шакллантириш // Academic research in educational sciences. – pp. 125-134.
17. Umidbek Xaitbayevich Adambayev. (2022) Navro'z bayrami va uning etnomadaniy ahamiyati. Academic research in educational sciences. – pp. 175-177.
18. Умидбек Адамбаев. (2022) Ишонч-этиқодни шакллантиришда аргументлашнинг ўрни // Academic research in educational sciences. – p. 898.
19. Баҳодир Мирзаевич Қандов. (2021) The importance of forming an active civic position among young people. Актуальные научные исследования в современном мире. – С. 102-106.
20. Қандов Б.М. (2021). Philosophical and Legal Problems of Women's Rights And Freedoms in the Process of Globalization // Актуальные научные исследования в современном мире. – pp. 65-70.
21. Bakhodir Qandov. (2020) Human Rights are a Social Phenomenon: The Principles of Globalization and Personal Liberty. – P. 488-495.
22. Kandov B.M. (2021). Problems of Global Ecology and Socio-Natural Environment // International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. – pp. 182-186.
23. Ikramov R. Kandov B.M. (2021). The Role of Education and Upbringing in the Formation of a Harmonious Personality in the Process of Globalization // Journal of Ethics and Diversity in International Communication. – pp. 33-37.
24. Togayev Shavkat Hurramovich. Kandov Bakhodir Mirzayevich. (2021) The role of education in the development of environmental consciousness of a person. ISJ Theoretical & Applied Science, 1129-1133.
25. Bakhodir Qandov, Hamza Juraev. (2020) Creation of a New System of Education and Education in the Bukhara People's Republic // International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – pp. 496-501.

26. Kalkanov Eshmatboy Tashpulatovich. (2022) The Role of Innovative Education in Educating a Developed Generation // European journal of life safety and stability (EJLSS). – pp. 79-81.
27. Ismayilov Akmal Ziyadillaevich. Factors in the Development of Civil Society Institutions in the New Uzbekistan // International Journal of Development and Public Policy Vol. 2 No. 3 (2022). – pp. 84-91.
28. Sultanov Og'abek. The essence of the obligation in the views of eastern thinkers. Academia Globe: Inderscience Research. –p. 39-42.
29. Ikramov Ravshan Aktamovich, Ismayilov Akmal Ziyadillaevich. (2020) Historical and Theoretical Roots of Establishing a Democratic Law in Uzbekistan. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). – pp.507-510.
30. Adambaev U. (2021). Confidence-nonverbal methods of argumentation in the formation of the verb // Экономика и социум. – С.18-21.